XALQ DEPUTATLARI KOSONSOY TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 20 - sentabr VI-62-86-6-80-K/23 Kosonsoy tuman hokimligi

Kosonsoy tumanidagi geografik ob’yektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 20 yanvardagi 34-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2023 yil 23 fevraldagi 08-01371-sonli “Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni” ijrosini ta’minlash maqsadida tuman komissiyasi bergan xulosasiga asosan tumandagi 12 ta qabriston tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining 2023 yil 23 fevraldagi 08-01371-sonli “Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni” ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi qabristonlar nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (A.Qirg‘izov), tuman kadastr agentligi (I.Saidov), tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (A.Boboxonov) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari ilovada ko‘rsatilgan geografik ob’yektlarni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish xujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (V.Tojiboyeva) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **D.Kadirov**

Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashining
2023-yil 20-sentabrdagi
VI-62-86-6-80-K/23-son qaroriga
1-ilova

Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Kosonsoy tuman komissiyasining nomi o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan qabrriistonlaar bo‘yicha taklifi

MA’LUMOT

№	Geografik ob’yektning turi	Geografik ob’yektning joylashgan o‘rni	Geografik ob’yektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar
1.	Qabriston	Kosonsoy tuman O‘zbekiston MFY	O‘zbekiston qabristoni	Mangulik qabristoni
2.	Qabriston	Kosonsoy tuman Yangishahar MFY	Yangishahar qabristoni	Yangishahar qabristoni
3.	Qabriston	Kosonsoy tuman Xonqo‘rg‘on MFY	Xotira qabristoni	Xotira qabristoni
4.	Qabriston	Kosonsoy tuman Navbahor MFY	Buloq qabristoni	Buloq qabristoni
5.	Qabriston	Kosonsoy tuman Nurafshon MFY	Yangishahar qabristoni	Qozoqovul qabristoni
6.	Qabriston	Kosonsoy tuman Bog‘ishamol MFY	Qo‘chqormozor qabristoni	Qo‘chqor mozor qabristoni
7.	Qabriston	Kosonsoy tuman Bog‘ko‘cha MFY	Eskimozor qabristoni	Eski mozor qabristoni
8.	Qabriston	Kosonsoy tuman Chak MFY	Mamayusufota qabristoni	Mamayusuf ota qabristoni
9.	Qabriston	Kosonsoy tuman Buloqboshi MFY	Xayitvoy ota qabristoni	Xayitvoy qabristoni
10.	Qabriston	Kosonsoy tuman Xuriyat MFY	Shaxidmozor qabristoni	Shaxidmozor qabristoni
11.	Qabriston	Kosonsoy tuman Xuriyat MFY	Jarroru mullox qabristoni	Jarroru mullox qabristoni
12.	Qabriston	Kosonsoy tuman Yoshlik MFY	Yoshlik qabristoni	Yoshlik qabristoni